



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

MUNDARIJA

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo'yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta'siri.....	36
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'nalishlari.....	53
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.....	76
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o'sish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo'nalishlari.....	104
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O'zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o'rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O'zbekiston uchun istiqbollar.....	136
<b>Ro'zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

**INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING  
XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI**

**ПРОЦЕДУРА РАЗРАБОТКИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ  
ОТЧЕТНОСТИ В СЛУЧАЕ УЧЕТА ИНВЕСТИЦИЙ**

**PROCEDURE FOR DEVELOPING INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING  
STANDARDS IN THE CASE OF INVESTMENT ACCOUNTING**

**Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna**

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,  
Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrası i.f.f.d. (PhD), v.b., dotsent.

**Annotatsiya**

O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot muvofiqlashtirish uchun investitsiyalar hisobini takomillashtirish tartibiga solingan. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yozishda bir qancha xalqaro standartlar qo‘llanilgan. Bu standartlar bir-birini to‘ldirishga va bular asosida investitsiyalar hisobini hisob siyosatini takomillashtirishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, investitsiyalar hisobot, assotsiyalashgan korxonalar.

В Республике Узбекистан совершенствование учета инвестиций регламентируется в целях гармонизации консолидированной финансовой отчетности, подготовленной на основе международных стандартов финансовой отчетности. При составлении консолидированной финансовой отчетности на основе международных стандартов финансовой отчетности использовались несколько международных стандартов, призванных дополнять друг друга и формировать на их основе учетную политику для учета инвестиций.

**Ключевые слова:** Международные стандарты финансовой отчетности, консолидированная финансовая отчетность, инвестиционная отчетность, ассоциированное предприятие.

In the Republic of Uzbekistan, improvement of investment accounting is regulated in order to harmonize consolidated financial statements prepared on the basis of international financial reporting standards. When preparing consolidated financial statements based on international financial reporting standards, several international standards were used, designed to complement each other and form the basis for the accounting policy for investment accounting.

**Keywords.** International standards of financial reporting, consolidated financial reporting, investment reporting, associated enterprise.

O‘zbekiston Respublikasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni takomillashtirish, shu jumladan, konsolidatsiyalashgan guruh tarkibini belgilash tartibi quyidagi ro‘yxatda keltirilgan bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-404-son Qonuni (yangi tahrirda);

2) O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-387-son Qonuni (yangi tahrirda);

- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori;
- 4) MHXS (IFRS) 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot”;
- 5) MHXS (IAS) 28 “Ta’sir ostidagi tashkilotlarga va qo‘shma korxonalariga investitsiyalar”;
- 6) MHXS (IFRS) 3 “Biznes birlashuvlari”;
- 7) MHXS (IFRS) 11 “Birgalikdagi faoliyat bo‘yicha kelishuvlar”;
- 8) MHXS (IFRS) 12 “Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish”.


Bizningcha, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o‘zida birlashgan bosh, sho‘ba, ta’sir ostidagi tashkilot va qo‘shma nazorat qilinadigan korxonalar shaxslar guruhining hisobot topshirish sanasiga mulkiy va moliyaviy holati hamda hisobot davri holatiga moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning ma’lum qoidalar bo‘yicha birlashgan tizimini ifodalaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot- bu bosh korxonalar va uning sho‘ba korxonalarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari, pul mablag‘lari oqimlari yagona iqtisodiy faoliyat subyektlarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari, pul mablag‘lari oqimlari sifatida taqdim etiladigan kompaniyalar guruhining moliyaviy hisobotidir. Aynan shunday ta’rif MHXS (IFRS) 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot”da keltirilgan[1].

Yuqorida biz konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda investitsiyalar hisobining ba’zi qismlarini ko‘rdik. Quyida esa xorijiy olimlarning fikrlari bilan tanishamiz. L.P.Krasnov, N.G.Bolshakov, L.G.Kuznetsov, S.I.Puchkov, O.B.Lixachev kabi rossiyalik mualliflarning tadqiqotlarida asosan chet elda konsolidatsiyalashgan hisobotlar tuzilmasligi va ularda “investitsiyalar hisobi” hisobga olinmasligi to‘g‘risida eslatma bor edi. Shuningdek, ularning ishlarida nazariya, uslub va uslubiyotning ko‘plab savollari yoritilmagan, konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzish savollari esa yuzaki ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda energetika yo‘nalishidagi aksiyadorlik kompaniyalarida nazariya, uslubiyot va hisobot ta’minotini tashkillashtirish savollari tahlil qilinmasdan qolmoqda, konsolidatsiyalashgan hisobotning predmeti, vazifalari, taqdim etish mazmunining ilmiy asosi yo‘q.

Avvalambor, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning tavsiflanishiga, uning mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tushunilishiga, 8 ta, ular:



1-rasm. Xo‘jalik yurutuvchi subyektlarning investitsiyaviy faoliyatlarini ifodalovchi MHXS standartlari [2].

Boshqa kompaniyalarga kiritilgan investitsiyalarda yuqorida keltirilgan hisob-kitob qoidalarining ta’rifi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda qo‘llaniladi.

Z.M. Aliyev o‘zining ilmiy tadqiqotida quyidagicha ta’kidlaydi: “MHXS Kengashi o‘zining qarorini shu bilan izohlaydiki, hisobot (shu jumladan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot) asosli iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar, ya’ni kompaniya (kompaniyalar guruhi)ning moliyaviy holati, faoliyatining moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarda keng doiradagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi shart. Bundan tashqari, agar faoliyati guruh ichidagi boshqa kompaniyalar faoliyatidan ajralib turadigan kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada katta bo‘lsa, bunday kompaniyaning konsolidatsiya perimetridan chiqarilishi moliyaviy hisobot foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ya’ni buning oqibati – konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot maqsadlarining buzilishi bo‘lishi mumkin”[2].

V.M. Golikovning fikricha, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o‘zining hajmi, tarkibi, mazmuni va ahamiyati jihatidan mulkdorlar soni cheklangan, boshqaruv tizimi sodda, faoliyati hajmi tor bo‘lgan yakka tashkilotlarning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotiga nisbatan ancha keng tushuncha. Konsolidatsiyalashgan hisobot ko‘p hollarda transmilliy xarakter kasb etadi va aynan shuning uchun uni xalqaro darajada tartibga solish talab etiladi[3].

Ye.Yu.Volkova o‘z ilmiy ishida konsolidatsiyalashgan hisobot – bu xalqaro standartlar tamoyillari, talablari, taxminlari asosida guruh a’zolarining moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarini birlashtirish yordamida shakllantirilgan, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni ochiqalaydigan va korxonalarining konsolidatsiyalashgan guruhini yagona xo‘jalik subyekti sifatida tasavvur qilish imkonini beradigan moliyaviy hisobot ekanligini ta’kidlaydi[4].

Iqtisodchi olim O.Sobirov ta’kidlashicha, respublikamizdagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarni (MHXS) talablar darajasida yuritish iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar olib kirish hajmining oshishiga olib keladi[5].

Tadqiqot ishida xalqaro va yurtimiz miqyosidagi olimlarining moliyaviy hisobot bo‘yicha to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlari va asarlari o‘rganilgan. Xalqaro statistik ma’lumotlaridan, IFAC va “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJ ma’lumotlari bo‘yicha guruhlash, tahlil qilish, trend tahlil, solishtirma tahlil, tanlanma, kuzatuv usullaridan foydalaniladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlar mantiqiy va qiyosiy tahlil qilish, qiyosiy va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Investitsiyalar hisobi – zamonaviy xalqaro buxgalteriya va moliya hisobining eng murakkab, shuningdek, milliy va shu jumladan, xalqaro standartlarning tartibga solinmagan jihatlaridan biridir.

“Investitsiyalar hisobi” - tushunchasi “Bir guruhdagi faoliyatni hisobga olish va konsolidatsiya hisobi masalalariga tegishli bo‘lgan yagona standartlar talablarining, shuningdek, korxonalar investitsiyalari to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqalanishi bo‘yicha talablarning o‘rnatilishi moliyaviy hisobotning xalqaro jarayondagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

“Investitsiyalar hisobi” - bosh korxonalarining o‘zining korxonasi(sho‘ba korxonalarini, assotsiyalashgan korxonalar, qo‘shma korxonalar, ta’sir ostidagi tashkilotlar va boshqa birlashmaydigan birliklar)ga sarmoya kiritgan aktivlarini tan olish, baholash, nazorat qilish va moliyaviy hisobotda to‘g‘ri aks ettirish.

MHXS (IAS) 27 va PKR (SIC) 12 sharhida keltirilgan mavjud jamlanmaga yondashuvlarning nomuvofiqligini, shuningdek, qo‘shma korxonalaridagi ulushlarni MHXS (IAS) 31ga muvofiq hisobga olishdagi farqlarni bartaraf etish maqsadida, MHXS Kengashi tomonidan MHXS (IFRS) 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot”, MHXS (IFRS) 11 “Birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi kelishuv”, MHXS (IFRS) 12 “Boshqa kompaniyalarda ulushbay ishtirok etish to‘g‘risidagi axborotlarni ochiqalash” standartlari qabul qilindiki, bu o‘zida tashkilotning boshqa korxonalar (sho‘ba korxonalarini, qo‘shma korxonalar, ta’sir ostidagi tashkilotlar va boshqa birlashmaydigan birlikdagi korxonalar) bilan munosabatlari to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqalanishi bo‘yicha talablarni o‘z ichiga olgan yangi yagona standartni ifodalaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda investitsiyalar hisobi standartlariga taalluqli asosiy moddalar tahlil qilinar ekan, quyidagi xulosalarni chiqarish zarur:

a) “Hisobga olish talablari” bandi shunday talabga aniqlik kiritadiki, bunda bosh tashkilot o‘xshash amaliyotlar va shunga o‘xshash sharoitlardagi boshqa holatlarda yagona hisob siyosatidan foydalangan holda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlashi shart.

b) MHXS (IAS) 27 standartining “Alohida moliyaviy hisobot” bandida sho‘ba korxonalari, ta’sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalariga investitsiyalar hisobi alohida moliyaviy hisobotlar orqali ochib beriladi;

v) qachonki bosh kompaniya (yuqorida ko‘rsatilgan kompaniyadan farqli ravishda) birgalikda nazorat qilinadigan korxonalar yoki ta’sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyaga investitsiyalar bo‘yicha alohida moliyaviy hisobotni tayyorlayotganda, quyidagi ma’lumotlarni yoritib berishi lozim bo‘ladi:

- hisobot alohida bo‘lgani fakti, shuningdek, bunday hisobotning nima uchun tuzilishi sabablari, agarki qonunchilik organlari tomonidan talab etilmasa;

- sho‘ba korxonalari, ta’sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalariga kiritilgan yirik investitsiyalar ro‘yxati va uni hisobga olish usuli, shu jumladan, nomi, ro‘yxatdan o‘tgan yoki joylashgan mamlakati, egalik ulushi yoki ovozlar ulushini yoritish.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotlarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirish bo‘yicha ko‘plab amaliy masalalar hali ochiqlicha qolmoqda yoki ko‘rib chiqilmagan, jumladan, energetika tarmog‘ida investitsiyalarni hisobga olish xususiyatlari ham yetarlicha tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz investitsiyalar hisobini energetika sohasidagi juda katta va dolzarb masala sifatida baholaymiz. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda konsolidatsiyaning barcha usullari aniq-ravshan aks ettirilishi lozim. Va albatta, MHXSga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda investitsiyalarni hisobga olishda ishlatiladigan hisoblarni yoddan chiqarish mumkin emas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://fin-accounting.ru/ifrs/ifrs10>. МСФО (IFRS) 10 Consolidated Financial Statements. Консолидированная финансовая отчетность.

2. Muallif ishlanmasi.

3. Алиев З.М. «Формирование консолидированной финансовой отчетности холдингов в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности». Автореферат. -2011.- С.4.

4. Голиков Виктор Михайлович. «Организация и методика аудита консолидированной финансовой отчетности, составленной в соответствии с МСФО». Автореферат. 2007 г. С.15.

5. Юрьевна В.Е. «Формирование и анализ консолидированной финансовой отчетности группы компаний». Автореферат. 2010. стр.10.

6. Sobirov O. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari darajasida takomillashtirish. «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy jurnali. № 3, iyun, 2021 yil. ISSN: 2181-1016.